

Markaziy Osiyo mintaqasi uchun islomiy moliya markaziga aylanish uchun barcha kerakli parametrlar mavjud. Yagona etishmayotgan bo'g'in - bu yangi sanoatning ishlashi uchun tegishli qonunchilik va infratuzilma.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, J. va boshqalar. (2021). "O'zbekistonda islom moliyasining qonunchilik asoslari". *Islom iqtisodiyoti va moliyasi jurnali*, 15(2), 34-50.
2. Mamatov, S., & Asadov, A. (2019). *Prospects of Islamic finance and its products for economy of Uzbekistan. Articles of academic staff*, 37. 1
3. Rasulov, A. (2022). "O'zbekistonda islom bankingining rivojlanish tendentsiyalari". *Central Asian Financial Review*, 12(1), 21-37.
4. Ismoilov, B. va Abdurahmonov, K. (2019). "Iqtisodiy davrlarda islom banklarining barqarorligi: O'zbekistondan dalillar". *O'zbekiston Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 9(4), 44-58.
5. Umarov, X. va Hamidov, V. (2020). "Islom moliyasining O'zbekistonda kichik va o'rta biznesga ta'siri". *O'zbekiston tadbirkorlik huquqi jurnali*, 5(3), 112-128.
6. Karimova, T. va Rashidov, A. (2021). "Islom mikromoliyalash va qashshoqlikni kamaytirish: O'zbekiston misolida. Toshkent universiteti iqtisodiy sharhi", 6(2), 75-89.
7. Nazarov, Z. (2023). "O'zbekistonda islom va an'anaviy banklar samaradorligining qiyosiy tahlili". *Xalqaro bank va moliya jurnali*, 21(1), 65-83.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIY FAOL AHOLI DINAMIKASI

Rahimboyev Muxtorbek

Toshkent Xalqoro Moliyaviy Boshqaruv va

Texnologiyalar Universiteti

"Iqtisodiyot va boshqaruv" kafedrasi o'qituvchisi

Transformatsion iqtisodiyotning zamonaviy sharoitida O'zbekiston Respublikasi aholisini ish bilan ta'minlash, mehnat bozorini yaratish va ishsizlikning oldini olish muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi mehnat bozorini shakllantirish va undan foydalanish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u jamiyat, sanoat, hudud, korxonalarining holatini, ularning hayotiyligini aks ettiradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollari hamda har bir tuman va shaharning "o'sish nuqtalari"ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022 — 2026-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,5 baravarga, sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 baravarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,2 baravarga, xizmatlar hajmini 2,9 baravarga hamda qurilish ishlari hajmini 1,4 baravarga oshirish orqali

ishsizlik darajasini 9,3 % dan, 6,9 % ga kamaytirish, kambag'allikni 50 % gacha qisqartirish, jami bandligi taminlangan aholi sonini 238,4 ga oshirish ko'zda tutilgan. Bu ko'rsatkichlarga erishida Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining mehnat resurslari tahlilini amalga oshirish zarur hisoblanadi.

“Mehnat bozori”ga L.I.Shevchenko “mehnat bozorini yollanma mehnatni tashkil etish, foydalanish va haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqaruvchilar hamda ish beruvchilarning manfaatlarini kelishish va tartibga solish shakllari hamda usullari, iqtisodiy munosabatlari yig'indisi” sifatida tavsiflaydi[1]. O'z navbatida, I.L.Petrova “mehnat bozori, uning mohiyati nuqtai nazaridan, mehnatni o'z ichiga olish, muvofiqlashtirish va baholash usullari to'plami sifatida belgilanishi mumkin”[2] deb hisoblaydi. Yana bir fikr G.I.Kupalova tomonidan qabul qilinadi. Uning fikricha, “ishchi kuchi bozori” va “mehnat bozori” tushunchalari ekvivalent sifatida ishlatilishi mumkin, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq, bir-birini to'ldiradi hamda bozor munosabatlari jarayonida biridan ikkinchisiga o'tadi[3].

Mehnat bozorini boshqarish ushbu tizimning holatini va uning tashqi muhitini aks ettiruvchi ma'lumotlarni kuzatish, tahlil qilish va baholashdan iborat bo'lgan teskari aloqa mavjudligini o'z ichiga oladi. Doimiy ravishda dolzarb ma'lumotlarning mavjudligi mehnat bozorining hozirgi holatini baholash imkonini beradi va vaqt o'tishi bilan o'ziga xos xususiyatlarning o'zgarishini tahlil qilish tizimning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda mintaqaviy statistikaning axborot bazasini rivojlantirishni hisobga olgan holda mehnat bozoridagi barcha hodisa va jarayonlarni statistik o'rganish, tahlil qilish hamda baholash masalalari juda dolzarb.

Mehnat bozoridagi vaziyatni va bandlik siyosatini amalga oshirish samaradorligini monitoring qilish, shuningdek, milliy sharoitlarni hisobga olgan holda, statistik ma'lumotlar to'plamiga aholining bandligi va ish bilan ta'minlanish darajasini baholash uchun alohida ko'rsatkichlar kiritilishi kerak. Jumladan, iqtisodiyotda aholi bandligi soni, ishsizlik darajasi va boshqalar. Shu ma'noda Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining mehnat resurslari tahlilini amalga oshiramiz (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining mehnat resurslari

Ko'rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022	2022 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi, (-,+)
Jami mehnat resurslari, ming kishi	936,0	1026,6	1074,6	1066,1	1067,6	131,6
Shahar, ming kishi	480,6	518,9	542,7	526,3	527,8	47,2
Jamiga nisbatan foizda	51,3	50,5	50,5	49,4	49,4	-1,9
Qishloq, ming kishi	455,4	507,7	531,9	539,8	539,8	84,4
Jamiga nisbatan foizda	48,7	49,5	49,5	50,6	50,6	1,9

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining jami mehnat resurslari soni 2010 yilda 936,0 ga teng bo'lgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich aholi

soni o'sishi bilan 2022 yilda 131,6 ming kishiga o'sib 1067,6 ming kishiga yetdi. Ushbu mehnat resurslar sonini joylashuviga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022 yilda jamiga nisbatan 49,4 %, ya'ni 527,8 ming nafari shaharda istiqomat qilishini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida, mehnat resurslarining 2010 yilga nisbatan 2022 yilgacha bo'lgan davrda 1,9 ming kishiga shaharda kamayib qishloq aholisi o'rtasida ko'payganligini anglatadi. Bundan ko'rinadiki 2022 yilga kelib shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan tug'ilishni kamayganligidan dalolat beradi. Ko'rsatkichlarning bo'unday o'zgarishi respublikada iqtisodiy faol aholi sonining ham o'zgarishida o'z aksini topadi (2-jadval).

2-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy faol aholi soni dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022	2022 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi, (-,+)
Iqtisodiy faol aholi soni, ming kishi	627,4	665,4	790,0	781,5	786,1	158,7
Shahar, ming kishi	340,8	379,6	417,9	400,2	389,0	48,2
Jamiga nisbatan %da	54,3	57,0	52,9	51,2	49,5	-4,8
Qishloq, ming kishi	286,6	285,8	372,1	381,4	397,1	110,5
Jamiga nisbatan %da	45,7	43,0	47,1	48,8	50,5	4,8

2-jadvalda keltirilgan Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy faol aholi soni dinamikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2010-2022 yillarda iqtisodiy faol aholi soni 158,7 ming nafarga o'sib 786,1 ming kishini tashkil etdi va bu o'z navbatida qishloq aholisi o'rtasida 4,8 %ga o'sib, 50,5 %ga yoki 397,1 ming kishiga yetdi. Shuningdek, ijtimoiy sohalar, ya'ni uy-joy kommunal xo'jaligi va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning noishlab chikarish turlari, sog'likni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish soxalarining ish bilan band aholi sonidagi ulushlari yildan-yilga o'sib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "2022 — 2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 04.04.2022 yildagi 155-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5939940>
2. Шевченко Л. И. Рынок труда: анализ экономических концепций // Экономика Украины. – 2006 – № 4. – С. 18.
3. Петрова И. Л. Сегментация рынка труда: теория и практика регулирования. – К.: Аванпост, 2007. – 240 с.
4. Купалова Г.И. Социально-экономическая сущность формы и функции рынка рабочей силы // Занятость и рынок труда. – 2006. – № 2. – С. 12-19.